



**GLOBAL RAQAMLASHTIRISH REYTINGLARI HAMDA RIVOJLANGAN
DAVLATLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT BO'YICHA KO'RSATKICHLARI**


Mansurov Zikriyo Muxsinjon o'g'li

JIDU magistranti

zakmansuriy@gmail.com

IMD (International Institute for Management Development rankings) Jahon Raqobat bardoshlik Markazi tomonidan ishlab chiqarilgan IMD Jahon Raqamli Raqobat bardoshlik reytingi ko'p yillardan buyon iqtisodning biznes, hukumat va kengroq jamiyatdagi iqtisodiy o'zgarishlarning asosiy omilisifatida raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish va o'rganishga salohiyati va tayyorligini o'lchaydi. Global raqamli reytinglardan tashqari, turli nuqtai nazarlarga asoslangan taqqoslashlarni ko'rsatish uchun boshqa reytinglar ham taqdim etiladi. Ushbu raqamli reytinglar aholi soni bo'yicha, aholi jon boshiga YaIM bo'yicha turli tengdosh guruhlarni (20 000 dollardan yuqori va past) aks ettiruvchi mamlakatlar va turli geografik hududlardan (Yevropa-Yaqin Sharq-Afrika, Osiyo-Tinch okeani va Amerika) olingan uchta mintaqaviy reytingni o'z ichiga oladi. IMD World Digital Competitiveness (WDC) reytingi mamlakatlarning davlat amaliyoti, biznes modellari va umuman jamiyatdagi o'zgarishlarga olib keladigan raqamli texnologiyalarni qabul qilish va o'rganish darajasini tahlil qiladi va baholaydi. Ushbu ko'rsatkich 3ta asosiy yo'nalishlarni belgilagan holda izlanishlar olib boradi. Ular:

- Bilim omili yangi texnologiyalarni kashf etish, tushunish va o'rganish imkonini beruvchi, o'z navbatida raqamli transformatsiyaga olib keladigan nomoddiy infratuzilma. Ya'ni bu jihatlar mamlakatda mavjud inson kapitali sifatini, shuningdek, ta'lim va tadqiqotlarga investitsiyalar darajasini va ularning natijalarini o'lchaydigan ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi.
- Texnologiya omili raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga yordam beruvchi umumiy kontekst. Bu xususiy sektorda innovatsiyalarni rag'batlantirishda tartibga solishning ta'sirini, investitsiyalar uchun kapital mavjudligini va texnologik infratuzilma sifatini baholovchi mezonlarni o'z ichiga oladi.
- “Kelajakga tayyorlik” omili texnologiyaning hukumatlar, biznes va umuman jamiyat tomonidan qabul qilinishi darajasini tekshiradi. Bu omil xususiy sektorda elektron tijorat, sanoat robotlari va ma'lumotlarni tahlil qilish vositalarining tarqalishi, shuningdek, ushbu kiberxavfsizlik choralarining kuchi kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Ushbu reyting ma'lumotlar quyidagi sxemada ko'rsatilgan tarzda komyuterlashtirilgan texnologiya asosida tahlil qilib umumiy yahlit natijalarni e'lon qiladi.



1.3.1-rasm. IMD raqamli raqobatbardoshlik indeksining hisoblash usuli.

Raqamli raqobatbardoshlikning uchta omilining har biri uchun umumiy reyting taqdim etilgan. Shunday qilib, o'quvchi so'nggi bir necha yil ichida iqtisodiyotning raqamli evolyutsiyasini global miqyosda boshqalarga nisbatan tahlil qila oladi. Anashu o'tkazilgan izlanishlar natijasiga ko'ra 2022-yilning eng raqamlashtirilgan davlatlari reytingi e'lon qilindi (1.3.1-jadval).

Agar ma'lumotlarni yanada aniqroq kesimda tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu reytingda raqamlashtirishning barcha talablari yuqoriligi bilan Daniya birinchi o'rinni egalladi, AQSh 2-o'rin, Shvetsiya 3-o'rinda qolmoqda, Singapur 4-o'rinda bir pozitsiya pastladi. Shveytsariya esa 6-o'rindan 5-o'ringa, Gollandiya esa 7-o'rindan 6-o'ringa ko'tarildi. Finlyandiya 7-o'rinni egallab 11-o'rindan yuqori o'ntalikka qaytdi, Koreya Respublikasi ham 12-o'rindan 8-o'rinda kuchli 10 talikka qaytadi. Bu mamlakatlar yuqori darajada rivojlangan raqamli infratuzilmasi, davlat va xususiy sektorda texnologiyalardan keng foydalanishi hamda aholi o'rtasida raqamli savodxonlikning yuqori darajasi bilan tanilgan. Ular texnologiya va raqamlashtirishga innovatsion yondashuvi bilan tanilgan va elektron hukumat, elektron tijorat va mobil aloqa kabi sohalarda sezilarli yutuqlarga erishgan.



1.3.1-jadval

2020-yil raqamli raqobatbardoshlik indeksi

			Ball	
01	Daniya		100.00	↗ 3
02	AQSH		99.81	✓ 1
03	Shvetsiya		99.81	-
04	Singapur		99.48	↗ 1
05	Shvetsariya		98.23	↗ 1
06	Niderlandiya		97.85	↗ 1
07	Finlandiya		96.60	↗ 4
08	Koreya		95.20	↗ 4
09	Gongkong		94.36	✓ 7
10	Kanada		94.15	↗ 3

Manba: <https://www.imd.org/centers/wcc/world-competitiveness-center/rankings/world-digital-competitiveness-ranking>


Quyidagi rasmda ko'rinib turganidek mintaqaviy raqamli raqobatbardoshlik darajasi 2022 yilda bir nechta istisnalar bilan asosan barqaror bo'ldi. 2018 yildan 2022 yilgacha bo'lgan submintaqaviy umumiy raqamli raqobatbardoshlik reytingi tendentsiyasi keltirilgan. O'tgan yil davomida Shimoliy Amerika va Sharqiy Yevropa raqamlashtirish darajasini yaxshilagan; Sharqiy Osiyo, G'arbiy Yevropa va sobiq MDH va Markaziy Osiyo mamlakatlari tushib ketdi; boshqa kichik hududlar esa umumiy o'rtacha pozitsiyalarida nisbatan turg'unligicha qolmoqda. Shimoliy Amerikada raqamli raqobatbardoshlik darajasi o'rtacha 24-o'rindan 22-o'ringa ko'tariladi, Kanada va Meksikaning yaxshilanishi AQShning reytingdagi birinchi o'rinni yo'qotishiga sababchi bo'ldi. Xuddi shunday, Sharqiy Yevropaning o'rtacha raqamli raqobatbardoshlik pozitsiyasi 38-o'ringa ko'tariladi (2021 yilga nisbatan ikki pog'ona yuqori). Sharqiy Osiyo submintaqaviy reytingda birinchi o'rinda qolmoqda. Biroq, iqtisodiyotning o'rtacha raqamli raqobatbardoshlik reytingi bazi davlatlarda (Xitoy, Gongkong SAR, Yaponiya, Koreya Respublikasi va Tayvan, Xitoy) ikki pog'onaga pastlab, 13-o'rindan 15-o'ringa tushib, 2018-yilda boshlangan ijobiy tendentsiyaning teskarisini ko'rsatmoqda.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Umumiy raqamli raqobatbardoshlik bo'yicha mintaqalararo reytingi 2018-2022



1.3.2-rasm. Umumiy raqobatbardoshlik bo'yicha mintaqalararo reytingi

G'arbiy Yevropaning 2019-yilda boshlangan, ammo hozirda o'rtacha 21-o'ringa tushib qolgan ijobiy raqobatbardoshligida ham buzilishlar mavjud. Janubiy Osiyo va Tinch okeani, G'arbiy Osiyo va Afrika va Janubiy Amerika iqtisodiyotlarining o'rtacha raqamli raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari 2022 yilda barqaror bo'lib qolmoqda. Biroq 2019 yildan boshlab birinchi ikki mintaqada raqamli raqobatbardoshlik darajasi o'rtacha 2022 yilga kelib mos ravishda 33 va 38 o'rinlarga tushib ketdi. Janubiy Amerika iqtisodlari o'rtacha hisobda o'zlarining uzoq muddatli tendentsiyasini davom ettirmoqdalar va butun dunyo bilan solishtirganda raqamlashtirishda orqada qolmoqdalar. Sobiq MDH va Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodlari umumiy raqobatbardoshligi pasaygan holda o'rtacha 49-o'rinni egallagan.

1.3.2-rasmda raqamli raqobatbardoshlik bo'yicha submintaqaviy o'rtacha reytinglar asosiy omil darajasida keltirilgan. Ushbu diagrammada ko'rib turganimizdek natijalar IMD tadqiqotining 3 faktori bo'yicha ya'ni bilim, texnologiya hamda kelajakka tayyorgarlik bo'yicha hosil qilingan. Ayrim qit'alarining ikkiga bo'linib alohida urg'u berilganligi esa natijalarni yanada shaffof hamda aniqligidan dalolat beradi. 2022-yilda Sharqiy Osiyo va G'arbiy Yevropaning quyi hududlari kelajakka tayyorlik va texnologiyalar bo'yicha yetakchi bo'ldi. Biroq, bilim omilida Shimoliy Amerika G'arbiy Yevropaga qaraganda yuqori o'rinlarni egallaydi, ya'ni bu yilgi nashr Sharqiy Osiyo va Shimoliy Amerika iqtisodiyotlari raqamli innovatsiyalarning markazi bo'lib qolayotganini yana bir bor e'tirof etadi.

1.3.3-rasmda elektron davlat xizmatlarining (Elektron hukumat indeksi) hududlar bo'yicha ko'lami va mavjudligi ko'rsatilgan. Bu holda, Sharqiy Osiyo, G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika eng yuqori ko'rsatkichlarni egallaydi.

Raqamli iqtisodiyot borasida Yevropa doirasida olib boriladigan yana bir eng ishonchli tadqiqotlardan yana biri bu "DESI" ya'ni Raqamli Iqtisodiyot va Jamiyat Indeksi. Ushbu indeks har yili Yevro Ittifoqga a'zo davlatlarning raqamli taraqqiyotini kuzatib boradi va yillik hisobotlarini e'lon qiladi. Har yili hisobotlar mamlakat profillarini o'z ichiga oladi, bu a'zo davlatlarga ustuvor sohalarini aniqlashga yordam beradi va raqamli siyosatning asosiy yo'nalishlari bo'yicha Yevropa Ittifoqi darajasida tahlilni ta'minlaydigan tematik boblarni o'z ichiga oladi.